

# YASHIL

## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 117 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.*

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor

**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Buzrukxonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
<b>Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov</b>	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
<b>Musayeva Shoirazimovna</b>	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
<b>Ж.Я.Нуриллаев</b>	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili.....	37
<b>Xolmamatov Farhodjon Kubaevich</b>	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar .....	44
<b>Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li</b>	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
<b>Fayziyev Rabim Alikulovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti .....	60
<b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	67
<b>Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich</b>	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik) .....	72
<b>Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna</b>	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
<b>Mahamatova Maftuna</b>	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
<b>Koshanov Abdimurat Azat uli</b>	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
<b>Nurillayev Jasurbek Davronbekovich</b>	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
<b>Soatova Nodira Boboxanovna</b>	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
<b>Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li</b>	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
<b>Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li</b>	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
<b>Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna</b>	



# XORIJIY MAMLAKATLARDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy davlatlarda yashil moliyalashtirish amaliyoti BMT tomonidan ilgari surilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlatlar tomonidan xususiy sektorning yashil loyihalarni moliyalashtirishdagi faolligini oshirish maqsadida qo'llanilayotgan mexanizmlar, jumladan, huquqiy tartibga solish, imtiyozli kreditlar, kafolatlash tizimi va risklarni kamaytirish choralari o'rganilgan. Metodologik yondashuv sifatida korrelyatsion-regression tahlil, taqqoslash va sistematik tahlil usullari qo'llanildi. Natijalar xorijiy mamlakatlarda yashil obligatsiyalar va yashil kreditlar orqali moliyalashtirish samaradorligini ko'rsatadi. Xulosa sifatida, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda muvofiqlashtirilgan siyosat va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil moliyalashtirish, yashil kredit, yashil obligatsiya, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, moliyaviy risklar, xalqaro tajriba, yashil taksonomiya.

**Abstract:** This article explores the implementation of green finance in foreign countries within the framework of the UN Sustainable Development Goals. The study examines government mechanisms aimed at supporting private sector involvement in green project financing, including regulatory frameworks, concessional lending, public guarantees, and risk reduction strategies. Methodologically, the research applies correlation-regression analysis, comparative evaluation, and systematic review. The findings demonstrate the effectiveness of green bonds and loans as key instruments for sustainable economic transformation. The paper concludes with policy recommendations for enhancing green financing frameworks in Uzbekistan, incorporating best practices from international experience.

**Key words:** green finance, green loans, green bonds, sustainable development, climate change, financial risks, international practices, green taxonomy.

**Аннотация:** В статье рассматривается практика «зеленого» финансирования в зарубежных странах в контексте Целей устойчивого развития, выдвинутых ООН. Исследованы меры государственной поддержки, направленные на повышение активности частного сектора в финансировании экологических проектов, включая нормативное регулирование, льготное кредитование, государственные гарантии и снижение финансовых рисков. Методология исследования основана на корреляционно-регрессионном анализе, сравнительном и системном подходах. Полученные результаты показывают эффективность использования зеленых облигаций и кредитов в различных странах. В заключение предложены рекомендации по совершенствованию механизмов «зеленого» финансирования в Узбекистане на основе международного опыта.

**Ключевые слова:** зеленое финансирование, зеленый кредит, зеленые облигации, устойчивое развитие, изменение климата, финансовые риски, международный опыт, зеленая таксономия.

## KIRISH

So'nggi yillarda atmosferaga chiqarilayotgan umumiy uglerod ( $CO_2$ ) chiqindilarining 25 foizdan ortig'i Xitoy hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu holat, asosan, mamlakatning jahon sanoatida yetakchi o'ringa ega ekani, aholi sonining ko'pligi va ko'mirga asoslangan energetika tizimi bilan bog'liqdir. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Xitoy yiliga 10 milliard tonnadan ortiq  $CO_2$  chiqindisi bilan dunyodagi eng yirik chiqindilar manbaiga aylangan<sup>1</sup>.

Iqlim o'zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi, resurslar tanqisligi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi ekologik tahdidlar fonida, bugungi kunda "yashil moliyalashtirish" (green finance) konsepsiyasi global darajada muhim strategik vositaga aylangan. Yashil moliya – bu ekologik toza, kam uglerodli va barqaror loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy instrumentlar, jumladan, investitsiyalar, kreditlar va obligatsiyalarni o'z ichiga

<sup>1</sup> Global Carbon Project, 2023.



oluvchi tizimdir. Ushbu yondashuv energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik infratuzilmani kengaytirishga xizmat qiladi.

Yashil moliya nafaqat moliya sektori, balki davlat siyosati va xalqaro tashkilotlar uchun ham atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishda amaliy yo'nalma bo'lib xizmat qilmoqda. Bu sohada Yevropa Ittifoqining "Yashil kelishuv" tashabbusi, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) va Parij kelishuvi asosiy siyosiy asos vazifasini bajarmoqda. Yashil obligatsiyalar, barqaror investitsiya fondlari va ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari ushbu mexanizmlarning muhim tarkibiy qismlaridandir.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ilk bor 1992-yilda BMT tomonidan qabul qilingan "XXI asr kun tartibi" dasturi orqali shakllandi. 2012-yilda Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan "RIO+20" sammitida "yashil iqtisodiyot" tushunchasi asosida barqaror rivojlanish modeliga o'tish, xususan, dekarbonizatsiya, uglevodorod chiqindilarini kamaytirish, biosferani asrash va resurslardan oqilona foydalanish kabi yo'nalishlar belgilandi. 2015-yilda esa BMT tomonidan "Dunyomizni o'zgartirish: 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibi" (Transforming our World: the 2030 Agenda for Sustainable Development) qabul qilinib, 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi e'lon qilindi.

Ushbu maqsadlarga erishishda texnologiyalar yuqori kamaytirish, katta hajmdagi investitsiyalarni safarbar etish va mos moliyaviy infratuzilmani shakllantirish zarurati mavjud. Biroq, bugungi kunda haqiqiy investitsiyalar hajmi bilan yashil investitsiyalar ehtiyoji o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2020-yil holatiga ko'ra, faqat energetika sektori doirasida yashil investitsiyalar yetishmovchiligi 500 milliard yevroga teng deb baholangan<sup>2</sup>.

Bu raqam iqlim o'zgarishini sekinlashtirish va Yevropa Ittifoqining "Yashil kelishuv" (European Green Deal) maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha sarmoyalarni anglatadi<sup>3</sup>.

Bunga sabab quyidagilardir:

- ekologik texnologiyalarning yuqori boshlang'ich xarajatlari;
- uzoq muddatli sarmoyalar daromadligining pastligi;
- moliyalashtirish instrumentlarining rivojlanmaganligi.

OECD va boshqa xalqaro moliya institutlari tahlillariga ko'ra, global miqyosda kelgusi o'n yillikda yashil iqtisodiyotga o'tish uchun o'nlab trillion AQSh dollariga teng investitsiyalar zarur bo'ladi. Bu ehtiyojni qoplashda yashil obligatsiyalar, barqaror kreditlar, karbon kreditlari kabi moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish muhimdir.

Yashil moliyalashtirish quyidagi sohalarni qamrab oladi:

- energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish;
- past uglerodli transport infratuzilmasini yaratish;
- ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish;
- iqlim o'zgarishiga moslashuv choralarini moliyalashtirish.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil banklar va ekologik yo'naltirilgan moliyaviy institutlar yashil moliyalashtirishning muhim tayanchiga aylanmoqda. 1991-yildan boshlab Deutsche Bank, National Westminster Bank, Royal Bank of Canada kabi banklar tomonidan BMT tashabbusi asosida "Environmental Protection Initiative" loyihasi yo'lga qo'yildi va 2020-yilga kelib ushbu dasturga dunyo bo'yicha 170 dan ortiq bank qo'shildi. Ular ekologik mas'uliyat, uglerod izini kamaytirish va yashil texnologiyalarni moliyaviy qarorlarga integratsiyalash orqali barqaror rivojlanishga hissa qo'shmoqda.

Demak, yashil moliyalashtirish – bu nafaqat ekologik xavflarni kamaytirish vositasi, balki iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanatni uyg'unlashtiruvchi global yo'nalishdir. Shu sababli, maqolada xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida yashil moliyalashtirishni rivojlantirishning mexanizmlari, moliyaviy vositalari va institutsional asoslari tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda "yashil" loyihalarni moliyalashtirishning asosiy shart-sharoitlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda moliyalashtirish manbalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida chuqur o'rganilgan. Ushbu ilmiy izlanishlar "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini rivojlantirishda muhim nazariy asos va amaliy yondashuvlarni shakllantirgan bo'lib, sohada samarali qarorlar qabul qilish jarayonida ilmiy-metodik asos vazifasini bajaradi.

Xususan, atrof-muhitni muhofaza qilishda yashil moliyaning o'rni, uning asosiy jihatlari hamda yashil moliya va investitsiyalarda xususiy sektor rolini kuchaytirish masalalari Wang, Zhi, Taghizadeh-Hesary va Yoshino tomonidan tadqiq etilgan. Ularning ishlarida yashil moliya tushunchasining umumiy tavsifi, shuningdek, yashil

<sup>2</sup> Федорова Е. П. Роль государства в решении проблем развития «зеленого» финансирования. Финансовый журнал. 2020;12(4):37–51. DOI: 10.31107/2075–1990–2020– 4–37–51.

<sup>3</sup> European Commission (2020). Stepping up Europe's 2030 climate ambition - Investing in a climate-neutral future for the benefit of our people. [COM(2020) 562 final].



loyihalarni moliyalashtirishning asosiy usullari yoritilgan<sup>4</sup> Biroq, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun zarur bo'lgan amaliy shart-sharoitlar va omillar hali yetarli darajada tahlil qilinmagan.

Glomsrod va Wei<sup>5</sup> hamda Gianfrate va Peri<sup>6</sup> kabi iqtisodchilar yashil loyihalarni moliyalashtirishda yashil obligatsiyalarni chiqarish shartlari va ularning muomalasini tartibga solish mexanizmlarini o'rganganlar.

Ushbu tadqiqotlarda, asosan, yashil obligatsiyalar muomalasini tashkil etish, emissiya qilish va ulardan samarali foydalanish masalalari chuqur yoritilgan. Natijalarga ko'ra, mualliflar yashil loyihalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishda yashil iqtisodiyotning rolini kuchaytirish zarurligini asoslashgan. Shuningdek, davlat tomonidan tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni – soliq imtiyozlari, subsidiyalar, huquqiy normalarni takomillashtirish orqali yashil moliyalashtirish tizimini mustahkamlash muhim omil sifatida e'tirof etilgan.

Xususiy investorlarni yashil iqtisodiyotga keng jalb etish, yashil innovatsiyalarni moliyalashtirish tizimini shakllantirish hamda investitsiyaviy risklarni boshqarish yo'nalishida Owen, Brennan, Lyon<sup>7</sup>, Criscuolo, Menon, Wu va Zhang<sup>8</sup>, Menon, Wu, Zhanglar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Mamlakatimizdagi olimlardan A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev<sup>9</sup>, Z.Nurov, M. X. Rajabova<sup>10</sup> tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.V. Vahobov, Sh.X. Xajibakiev, T.K. Iminov, T.Z. Teshaboyev, M.T. Bo'taboyev<sup>11</sup> hamda Z. Nurov va M.X. Rajabova<sup>12</sup>ning ilmiy ishlarida yashil iqtisodiyotning turli jihatlarini yoritilgan.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash sharoitida ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish hamda ushbu asosda istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu maqolada yashil loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy holati, moliyalashtirish manbalari, ularning turlari va samaradorlik darajasi tahlil qilinadi. Xususan, so'nggi xalqaro tendensiyalar, amaliyotda qo'llanilayotgan iqtisodiy tashabbuslar, moliyalashtirish usullari, xususiy investorlarni jalb etish bo'yicha qo'llanilayotgan moliyaviy va institutsional mexanizmlar o'rganiladi. Shuningdek, yashil loyihalarni turlarga ajratish va tasniflash orqali moliyalashtirishni yanada samarali yo'lga qo'yish bo'yicha ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ilmiy mushohada yuritish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, suhbat o'tkazish, statistik tahlil, iqtisodiy va moliyaviy baholash hamda ekspert xulosalari asosida tahlil qilish usullaridan samarali foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda xalqaro moliya tizimida yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida zarur shart-sharoitlar yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada xalqaro moliyaviy institutlar, hukumatlar va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, 2006-yilda investitsiyalarni boshqarish va baholash jarayonlariga ekologik hamda ijtimoiy mezonlarni integratsiya qilishga qaratilgan muhim hujjat – "Mas'ul investitsiyalar bo'yicha tamoyillar" (Principles for Responsible Investment, PRI) ishlab chiqilgan. Ushbu tamoyillar investitsiya qarorlarini qabul qilishda atrof-muhit (Environmental), ijtimoiy (Social) va boshqaruv (Governance) – ya'ni ESG omillarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Ko'plab xalqaro investorlar va moliyaviy institutlar ushbu tamoyillar asosida o'z investitsiya strategiyalarini shakllantirib, nafaqat moliyaviy daromad olish, balki barqaror rivojlanishga hissa qo'shish, iqlim o'zgarishi, ijtimoiy tengsizlik va korporativ boshqaruvdagi shaffoflikni ta'minlash kabi maqsadlarga ham e'tibor qaratmoqda. Shu tariqa, yashil iqtisodiyot uchun investitsiya muhitini yaxshilash va barqaror moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish yo'lida muhim qadamlar tashlanmoqda.

4 Taghizadeh-Hesary F., Yoshino N. The way to induce private participation in green finance and investment. *Finance Research Letters*. 2019; 31:98-103. DOI: 10.1016/j.frl.2019.04.016.

5 Glomsrod S., Wei T. Business as unusual: the implications of fossil divestment and green bonds for financial flows, economic growth and energy market. *Energy for Sustainable Development*. 2018.

6 Gianfrate G., Peri M. The green advantage: exploring the convenience of issuing green bonds. *Journal of Cleaner Production*. 2019;127-135. DOI: 10.1016/j.jclepro.2019.02.022

7 Owen R., Brennan G., Lyon F. Enabling investment for the transition to a low carbon economy: government policy to finance early stage green innovation. *Current Opinion in Environmental Sustainability*. 2018; 31:137-145. DOI: 10.1016/j.cosust.2018.03.004.

8 Criscuolo C., Menon C. Environmental policies and risk finance in the green sector: cross-country evidence. *Energy Policy*. 2015; 83:38-56.

9 Иминов Т.К., Ваҳобов А.В., Тешабоев Т.З., Бўтабоев М.Т. (2019). "Зелёная экономика" как основа устойчивого развития. Монография. - Т: "Алоқачи", 480.

10 Z.Nurov, M. X. Rajabova (2022). "Yashil iqtisodiyot" da energetika sohasining iqtisodiy. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 781-787.

11 Iminov T.K., Vahobov A.V., Teshaboyev T.Z., Bo'taboyev M.T. (2019). "Yashil iqtisodiyot" – barqaror rivojlanishning asosi. Mono-grafiya. – Toshkent: "Aloqachi", 480 b.

12 Z. Nurov, M.X. Rajabova (2022). Yashil iqtisodiyotda energetika sohasining iqtisodiy ahamiyati. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5):781-787



Xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi global hamkorlik zamonaviy tartibga solish standartlarini yaratish, ma'lumotlar va tajriba almashish tizimini shakllantirish hamda iqtisodiyotni "yashillashtirish" jarayonini moliyalashtirishga xizmat qiluvchi vositalarni ishlab chiqish imkonini berdi. Xorijiy mamlakatlarda yashil tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida moliya sohasida quyidagi faoliyatlar yo'lga qo'yilgan: Fransiya, AQSh va Germaniyada yirik yashil loyihalarni imtiyozli kreditlash; AQSh va Germaniyada ekologik toza texnologiyalarni moliyalashtirish uchun kredit kafolatlari ajratish; AQSh va Buyuk Britaniyada ixtisoslashtirilgan institutsional investorlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash; Shvetsiyada yashil vositalarni ishlab chiqishda axborot va metodologik yordam ko'rsatish; Xitoy, Braziliya va Fransiyada ixtisoslashtirilgan milliy moliyaviy nazorat organlarini tashkil etish; Yevropa Ittifoqida esa raqamlashtirish faoliyatlarini kengaytirish.


2023-yil yakunlariga ko'ra, Xitoy dunyo miqosida eng yirik yashil obligatsiyalar emitenti sifatida yetakchilik qilgan. Mamlakat tomonidan chiqarilgan yashil obligatsiyalar hajmi qariyb 85 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Reytingda ikkinchi o'rinni 68 milliard AQSh dollari qiymatidagi yashil obligatsiyalar bilan Germaniya egallagan. Shuningdek, Qo'shma Shtatlar tomonidan 60 milliard AQSh dollari miqdorida yashil obligatsiyalar emissiya qilingan bo'lib, bu mamlakatni global reytingda uchinchi o'ringa olib chiqqan, biroq Yevropa davlatlari ichida birinchi o'rinda turgan mamlakat sifatida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar dunyo moliya bozorida yashil obligatsiyalarga bo'lgan talab ortib borayotganini va yirik iqtisodiyotlar ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan investitsiyalarni faol qo'llab-quvvatlayotganini tasdiqlaydi.

Yashil obligatsiyalar butun dunyo bo'ylab, qoida tariqasida, ijobiy ekologik yoki iqlimiy maqsadlarga ega bo'lgan va ekoinvestitsiyalarning kapital xarajatlarini kamaytirishga yordam beradigan loyihalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.<sup>13</sup>

Xalqaro moliya institutlari ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kelgusi o'n yil ichida yashil faoliyatni rivojlantirishga o'nlab trillion AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilishi, va shunga mos ravishda moliyaviy ehtiyojni qoplash uchun yashil moliyalashtirish vositalaridan faol foydalanish zarur bo'ladi. Hozirgi vaqtda yashil moliyalashtirish hajmining o'sish dinamikasi sezilarli darajada kuchaygan.

Chet el notijorat tashkiloti – Climate Bonds Initiative (CBI) ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda butun dunyo bo'ylab yashil obligatsiyalar va kreditlar chiqarilishi jami 254,9 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 49 foizga ko'pdir<sup>14</sup>. Biroq, 2019-yilda yashil kreditlar hajmi sezilarli darajada past bo'lib, atigi 6,8 milliard AQSh dollarini (2,6%) tashkil etgan. Bu esa yashil moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi muammosini yanada kuchaytirgan.

2019-yildan boshlab umumiy yashil moliyalashtirish hajmi 2022-yilgacha ortgan bo'lsa-da, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkichda pasayish kuzatilgan. Shunga qaramay, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) tomonidan ajratilgan mablag'lar 2019-moliya yilidan 2023-moliya yilgacha deyarli ikki baravarga oshgan. Shuningdek, oluvchi tomonidan boshqariladigan disbursiya hisoblari orqali moliyalashtirish hajmi ushbu davr mobaynida sezilarli darajada o'sib, 2019-moliya yildagi 2,5 milliard AQSh dollaridan 2020-moliya yiliga kelib 19 milliard AQSh dollaridan oshgan (1-rasm).



1-rasm. Jahon banki guruhi tomonidan hamkor davlatlarga 2019-yildan 2023-yilgacha ajratilgan moliyalashtirish mablag'lari, agentliklar bo'yicha (milliard AQSh dollarida)<sup>15</sup>

13 Gianfrate G., Peri M. The green advantage: exploring the convenience of issuing green bonds. Journal of Cleaner Production. 2019;127–135. DOI: 10.1016/j.jclepro.2019.02.022.

14 Green Bonds Initiative, 2020

15 <https://www.statista.com/statistics/1489940/world-bank-group-financing-partner-countries-agency/>



Bugungi kunda yashil kreditlar bozori global moliyaviy tizimning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, ushbu sohadagi eng katta ulush Yevropa davlatlari va Xitoydagi kreditorlar hamda qarz oluvchilarga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Xitoy hukumati tomonidan ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlar ushbu yo'nalishning rivojiga kuchli turtki bo'lgan.

Xususan, 2007-yilda Xitoyda "Yashil kredit siyosati" (Green Credit Policy) qabul qilingan bo'lib, u bank sektorini ekologik mezonlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga undagan. Ushbu siyosatga ko'ra, banklar atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish va energiyani tejashga qaratilgan yashil loyihalarni moliyalashtirishi, shu bilan birga, energiya samaradorligi past, ortiqcha quvvatlar bilan ishlovchi va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi korxonalarni kreditlashni cheklashi belgilangan. Bu yondashuv orqali Xitoy nafaqat uglerod chiqindilarini kamaytirishga intilgan, balki moliyaviy sektorda barqarorlik va ekologik javobgarlikni integratsiyalashgan holda rivojlantirish modelini shakllantirgan.

Shunga o'xshash yondashuv Yevropa Ittifoqida ham kuzatilmoqda. Bu yerda yashil kreditlash siyosati iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va "Yashil kelishuv" strategiyasi doirasida davlat va xususiy moliya institutlari ishtirokida jadal rivojlanmoqda.

Hozirgi vaqtda banklar tomonidan taklif qilinayotgan yashil kreditlarning bir nechta turlari mavjud. Kredit bozori assotsiatsiyasi yashil kreditlarni ikki asosiy turga ajratadi:

atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha loyihalar va xizmatlar uchun yashil kredit; rivojlanayotgan strategik tarmoqlarga beriladigan yashil kredit.

Biroq banklar ko'pincha o'z mijozlarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ularning talablariga mos mahsulot va xizmatlarni joriy qiladilar. Shu sababli, yashil kredit mahsulotlarining aniq tasnifi banklar o'rtasida farqlanishi mumkin.

Yashil kredit munosabatlarini tartibga solish va ishonchligini ta'minlash uchun ular bozor tamoyillariga mos holda faoliyat yuritishi lozim. Kredit bozori assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Yashil kredit tamoyillari" (The Green Bond Principles – GBP, 2017) bozorning barcha ishtirokchilariga kreditni "yashil" deb tasniflash uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tamoyillar to'rt asosiy yo'nalishni qamrab oladi: kreditning maqsadi, mablag'lardan foydalanish, loyiha tanlovi mezonlari va shaffof hisobot yuritish.

Yashil kredit mahsulotlarining indikativ (yo'naltiruvchi) ro'yxati 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Xorijiy tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan "yashil" kredit mahsulotlari<sup>16</sup>.

Banking "Yashil" kredit mahsuloti	"Yashil" kredit mahsulotining xususiyatlari
Ekologik uy-joy sotib olish / qurish uchun "yashil" kredit	Ushbu mahsulot odamlarni ekologik toza uylar sotib olishga yoki qurishga undaydi. Banklar qarz oluvchilarga bozor stavkalaridan past foiz stavkalarida imtiyozli "yashil" kreditlar beradi
Qurilishni rivojlantirish uchun yashil kredit	Ekologik toza ko'chmas mulk loyihalarini quruvchi rivojlanish kompaniyalari uchun mo'ljallangan
Energiyani tejash uchun "yashil" kredit	Kredit, energiya tejovchi uskunalar haridi uchun oddiy aholi yoki o'z faoliyati sohasida energiya tejovchi va atrof-muhitni muhofaza qilish uskunalari bilan iste'molchilarni ta'minlovchi korxonalarga beriladi. Bu kredit imtiyozli foiz stavkasida beriladi.
Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurish uchun "yashil" kredit	Kredit kompaniyalarga quyosh, shamol, gidroenergetika, biomassadan elektr energiyasi ishlab chiqarish va aqlli elektr tarmoqlari sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun beriladi.
«Yashil» avtomobil krediti	Kam uglerodli yoki yoqilg'i tejaydigan avtomobil xaridlari uchun mo'ljallangan
"Yashil" transport krediti	Kredit yoqilg'i tejash va energiya samaradorligi texnologiyalarini modernizatsiya qilayotgan transport kompaniyalariga beriladi
Suv ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish uchun «Yashil» kredit	Kredit suvni tejash va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, ichimlik suvini tozalash loyihalarini amalga oshirish uchun ajratiladi

2019-yilda banklar tomonidan berilgan "yashil" kreditlarning butun jahon bo'yicha hajmi 6,8 milliard AQSh dollarini tashkil etdi<sup>17</sup>. Bugungi kunda ekologik toza uy-joylar, qayta tiklanadigan energiya manbalariga

16 Международный опыт развития «зеленого» кредита как инструмента «зеленого» финансирования / О. И. Еремина, Г. В. Морозова, Ю. Ю. Филичкина // Контентус. – 2021. – № 1. – С. 34 – 42. УДК 336.7 DOI: 10.24411/2658-6932-2021-10000/

17 Green Bond Impact Report Financial Year 2020 / International Finance Corporation [Электронный ресурс]. – URL: [https://www.ifc.org/wps/wcm/connect/corp\\_ext\\_content/ifc\\_external\\_corporate\\_site/home](https://www.ifc.org/wps/wcm/connect/corp_ext_content/ifc_external_corporate_site/home) .



asoslangan obyektlar qurilishi uchun mo'ljallangan "yashil" bank kreditlari, yashil transport va avtokreditlar, iqlim kredit kartalari kabi mahsulotlar keng tarqalmoqda. Bu esa iqlim o'zgarishini yumshatishga, atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga va tabiiy resurslardan tejamkor hamda samarali foydalanishga xizmat qilmoqda.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni ko'plab davlatlarda "yashil" loyihalarning yuqori iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorligini namoyon qilmoqda. Shu sababli, so'nggi yillarda aksariyat mamlakatlar ushbu loyihalarni faqat davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtirish amaliyotidan asta-sekin voz kechib, o'rniga xususiy kapitalni jalb qilish, moliyaviy institutlar, investitsiya fondlari va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali yashil moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga intilmoqda.

Bu jarayonda davlatning roli muhimligicha qolmoqda. Biroq u bevosita moliyalashtiruvchi emas, balki normativ-huquqiy baza yaratish, soliq va subsidiya orqali rag'batlantirish, xavflarni kamaytirish hamda investitsiya muhiti barqarorligini ta'minlash orqali xususiy sektorni faol jalb etishga qaratilgan faoliyat yuritmoqda. Natijada yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektorning ulushi ortib bormoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, yashil moliyalashtirishda davlat va xususiy investitsiyalarning nisbati 1:5 bo'lishi kerak. Masalan, Xitoy tajribasiga qaraganda, bu mamlakatda mahalliy yashil loyihalar davlat byudjeti hisobidan 10–15 foiz, xususiy mablag'lar hisobidan esa 85–90 foiz miqdorida moliyalashtiriladi.

Biroq yashil loyihalarni, ayniqsa xususiy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan keng ko'lamli loyihalarni moliyalashtirish bir qator xavflar bilan bog'liq. Shu sababli, xususiy investitsiyalarni jalb etish uchun yashil loyihalarga sarmoya kiritish risklarini an'anaviy texnologiyalarga asoslangan loyihalardagi sarmoya xavfi darajasiga qadar kamaytirish zarur.

Bu borada jahon amaliyotida xususiy investorlarni qo'llab-quvvatlash uchun turli moliyaviy dastak va vositalardan foydalaniladi. Jumladan:

- soliq kreditlari;
- standartlar joriy etish;
- "yashil iqtisodiyot"ga zid kompaniyalarni qo'llab-quvvatlashni to'xtatish;
- imtiyozli tariflar (Feed-in Tariff);
- qayta tiklanadigan energiya uchun kvotalar;
- kredit kafolatlari va kafilliklar;
- sug'urta mexanizmlari;
- valyuta kursi va foiz stavkalaridagi o'zgarishlardan himoya qilish kabi chora-tadbirlar.

Avvalo, xususiy investorlarni yashil iqtisodiyotga jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha davlat siyosatining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim<sup>18</sup>. Misol tariqasida, Buyuk Britaniya tajribasini keltirish mumkin: bu mamlakatda atrof-muhitga davlat xarajatlarining atigi 1 foizga o'sishi natijasida biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan yashil investitsiyalar hajmi yiliga o'rtacha 5,28 foizga oshgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Dunyoda yuzaga kelayotgan ekologik tahdidlar yangi iqtisodiy yo'lni – ya'ni iqtisodiy faoliyatga mas'uliyatli va barqaror yondashishni taqozo qilmoqda. Bu holat "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va amaliyotga joriy etilishiga zamin yaratmoqda. "Yashil" iqtisodiyot – bu yangi iqtisodiy paradigma bo'lib, unda har bir subyekt ekologik javobgarlikni o'z zimmasiga oladi:

- kompaniyalar tovar va xizmatlarning mas'uliyatli ishlab chiqaruvchilari bo'lishga chaqiriladi;
- fuqarolar mas'uliyatli iste'molchi bo'lishga chaqiriladi;
- davlatlar iqtisodiy o'sish chegaralarini hurmat qilishga da'vat etiladi.

Global "yashil" bozorni shakllantirish jarayonida yashil iqtisodiyot loyihalariga sarmoya kirituvchi xalqaro moliya institutlari, shuningdek, milliy "yashil" banklar, rivojlanish banklari, investitsiya fondlari va moliyaviy korporatsiyalardan tashkil topgan vositachilar muhim o'rin tutadi. Jahonda kuzatilayotgan yangi tendensiyalardan biri – iqtisodiyotni "yashillashtirish" bo'lib, bu jarayonni davlat tomonidan samarali qo'llab-quvvatlash milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida iqtisodiy samaradorlikka erishishda muhim rol o'ynaydi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda "yashil" loyihalarni moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari shakllantirilgan. Ular orasida: "yashil" davlat banklari, imtiyozli tarif dasturi (Feed-in Tariff – FIT), ixtisoslashtirilgan davlat kredit tashkilotlari, ekologik soliqlar, soliq chegirmalari va imtiyozlari, shuningdek, yashil moliyalashtirishning boshqa zamonaviy vositalari keng qo'llanilmoqda.

Bu jarayonda "yashil" loyihalarni moliyalashtirishda bozor emas, aynan davlat yetakchi rol o'ynaydi. Shu sababli, yashil iqtisodiyotga o'tish bosqichidagi mamlakatlarda yashil moliyalashtirish bozorini rivojlantirish

<sup>18</sup> Owen R., Brennan G., Lyon F. Enabling investment for the transition to a low carbon economy: government policy to finance early stage green innovation. *Current Opinion in Environmental Sustainability*. 2018; 31:137–145. DOI: 10.1016/j.cosust.2018.03.004



uchun moliyaviy institutlar va investorlarni yashil loyihalarga sarmoya kiritishga rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil moliyaning rivojlanish jarayonida nafaqat davlat, balki tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy institutlar ham muhim rol o'ynamoqda. Ularning har biri yashil iqtisodiyotni barpo etishda o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Ayniqsa, moliyaviy oqimlarni ekologik barqaror loyihalarga yo'naltirishda ularning o'zaro hamkorligi va strategik muvofiqlashtiruvchi katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, barcha manfaatdor tomonlar – hukumat vakillari, xususi sektor, xalqaro moliyaviy institutlar, fuqarolik jamiyati va ilmiy doiralar – o'zaro muloqot, hamkorlik va hamohanglikni kuchaytirishi zarur. Faqat shu tarzda yashil moliyalashtirish tizimini yanada rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga erishish mumkin bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Public-Private Partnerships. International Monetary Fund, 2004.
2. Yescombe E.R. Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. Butterworth-Heinemann/Elsevier, Oxford, UK, 2007. – 369 b.
3. Owen R., Brennan G., Lyon F. Enabling investment for the transition to a low carbon economy: government policy to finance early stage green innovation. Current Opinion in Environmental Sustainability, 2018.
4. Еремина О.И., Морозова Г.В., Филичкина Ю.Ю. Международный опыт развития «зеленого» кредита как инструмента «зеленого» финансирования // Контентус, 2021.
5. Gianfrate G., Peri M. The green advantage: exploring the convenience of issuing green bonds. Journal of Cleaner Production, 2019. – B. 127–135.
6. Criscuolo C., Menon C. Environmental policies and risk finance in the green sector: cross-country evidence. Energy Policy, 2015; 83:38–56.
7. Taghizadeh-Hesary F., Yoshino N. The way to induce private participation in green finance and investment. Finance Research Letters, 2019.
8. Glomsrod S., Wei T. Business as unusual: the implications of fossil divestment and green bonds for financial flows, economic growth and energy market. Energy for Sustainable Development, 2018.
9. Иминов Т.К., Вахобов А.В., Тешабоев Т.З., Бўтабоев М.Т. «Зелёная экономика» как основа устойчивого развития. Монография. – Т.: «Алоқачи», 2019. – 480 б.
10. Атаниязов Ж.Х. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда «яшил» лойиҳаларни молиялаштиришнинг истиқболли йўналишлари // Scientific Journal of "International Finance & Accounting", Issue 4, August 2023. ISSN: 2181-1016.
11. <https://www.oecd.org/>
12. <https://www.un.org/en/climatechange/cop26>
13. <https://www.climatebonds.net/market/data>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---